

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI.....	10
Bauyetdinov M.J.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH STRATEGIYASI.....	18
Usmanova Zumrad Islamovna, Xasanova Yulduz Kayumovna	
TOKLI O'TKAZGICHLARDA MAGNIT MAYDON INDUKSIYASINING NAZARIY TAHLILI	23
O'ngboyev Anvar, Umarov Uyg'un, Dusiyorov Jaxongir, Jonimqulov Mirtemur	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	30
Akbarova Shaxnoza Yakub qizi	
IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ASALARICHILIK TARMOG'I SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	33
Farmanov Jonibek Ziyadullayevich	
BILVOSITA SOLIQLARNI MA'MURIY BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	38
Mansurova Arofatxon Shavkat qizi	
BANKLARNING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI XALQARO USULLAR VA MEZONLAR ASOSIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	43
G'aybulloyev Suxrob Odil o'g'li	
IDEMPOTENT O'LCHOVLAR SIMPLEKSIDA ANIQLANGAN CHIZIQLI OPERATORLAR DINAMIKASINING EKOLOGIK MODELLASHTIRISHDAGI TATBIQI	50
Karimov Muzaffar Musaxonovich, Karimova Shalola Musayevna	
BANKLARARO LIKVIDLILIKNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	56
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
BANKLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH	60
Asemova Rano Jabbarbergenovna	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ СЦЕНАРНОГО АНАЛИЗА РАЗВИТИЯ АПК.....	66
Ли Марина Рудольфовна	
POLIMER VA UGLEROD NANOTOLALI MODIFIKATORLAR ASOSIDA BITUM KOMPOZITSIYALARINING REOLOGIK, MIKROTUZILMAVIY VA ADGEZION XOSSALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI	70
Hasanov Bahrom Bo'ronovich	
XORIJIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHIGA XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANING TA'SIRI.....	76
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
SULFIDLI POLIMETALL RUDALARNI SELEKTIV FLOTATSIYALASHDA YANGI AVLOD REAGENTLARINI QO'LLASHNING TEXNOLOGIK YECHIMLARI TAHLILI.....	79
Xushvaqtova Zamira Hikmatulloyevna, Saidaxmedov Aktam Abdisamiyevich	
LOGICLABUZ: A BROWSER-NATIVE CO-SIMULATION PLATFORM FOR THE VIRTUALIZATION OF MULTI-MCU ROBOTIC SYSTEMS	84
Ergashev Adizbek Kamol ugli	
DUBAY IQTISODIYOTINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV BOSQICHLARI VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	94
Dilmira Abdumalikovna Shamusarova	
MINTAQADA TIBBIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO MODELLARI.....	99
Yusupova Mehrigon O'ktamovna	
EKONOMETRIK MODELLARNI TANLASH VA ULARNING SIFATINI BAHOLASHDA INTEGRAL MEZONNI QO'LLASH	104
Turayev Baxtiyor Ergashevich	



PHP VA SUN'YI INTELLEKT SINERGIYASI: LARAVEL ASOSIDA INTELLEKTUAL VEB-TIZIMLARNI LOYIHALASH ARXITEKTURASI.....	110
Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Temirova Orifa, Yuldashboyev Shermuxammad	
CORPORATE GOVERNANCE QUALITY, FOREIGN DIRECT INVESTMENT, AND ECONOMIC GROWTH: A PANEL ECONOMETRIC ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES (2003–2024).....	119
Yusufjon Pulatov	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	129
Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li	
МЕХАНИЗМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КРУПНЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	135
T.T. Жураев	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA HUDUDIY BANDLIKNI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI	140
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
YASHIL IQTISODIYOT, RESURS SAMARADORLIGI, TABIIY KAPITAL, AYLANMA IQTISODIYOT, EKOLOGIK SAMARADORLIK VA INKLYUZIV O'SISH TUSHUNCHALARINING ILMIY EVOLYUTSIYASI TAHLILI	146
Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li	
РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА	153
Алиева Сусанна Сейрановна	
РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА	153
Алиева Сусанна Сейрановна	
BUXORO VILOYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI.....	160
Ibragimov Aziz Turayevich	
ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA SOLIQLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	168
Shirinov Uchqun, Bahodirova Madinabonu	
TA'LIM XIZMATLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING SWOT VA OMILLI TAHLILI.....	176
Alimova Shamsiya Abidovna	
ВЫЗОВЫ РАЗВИВАЮЩИХСЯ РЫНКОВ: ИНФРАСТРУКТУРНАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ, ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ.....	182
Умарова Шахноза Акбаровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QUYOSH ENERGIYASIGA ASOSLANGAN YOMG'IRLATIB SUG'ORISH TIZIMINING IQTISODIY-EKOLOGIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	190
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna	
TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING DAROMADLILIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	200
Ulug'bek Abraxmatov	
ZAMONAVIY TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOQLARIDA TRAFIK TURLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNING XIZMAT KO'RSATISH SIFATIGA TA'SIRI.....	204
Abdujapparova M.B., Mirxosilov M.M.	
TURIZMNI MINTAQAVIY RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLASH MODELINING TAMOYILLARI VA TARKIBIY ELEMENTLARI	209
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES AND FOOD SECURITY IN DEVELOPED COUNTRIES	214
Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi	



THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR OF UZBEKISTAN: AN ECONOMETRIC ANALYSIS	221
Toshmurod Kulmanov, Sarvar Urinov	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION JARAYONLARNI MOLIYALASHTIRISHNING MATEMATIK MODELI	228
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, A'zam Qutbiddin A'zamzoda	
ОБЯЗАТЕЛЬНОЕ МЕДИЦИНСКОЕ СТРАХОВАНИЕ В КЫРГЫЗСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ	234
Омокеев Максымбек Конколойевич	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQAVIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI	239
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
МАХАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ХАРАЖАТЛАРИ САМАРАЛИ ИЖРОСИНING MOLIYAVIY MUSTAQILLIKKA TA'SIRI	244
Usmonov Parviz Shavkatovich	
О'ZBEKISTONDA NAQD PULLARNING AYLANMASINI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI	249
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
СОЦИАЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ СФЕРЫ УСЛУГ	258
Абдуллаева Зульфия Иззатовна	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA IJTIMOY-IQTISODIY ISLOHOTLAR TAHLILI.....	263
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ ОБЪЁМА ИНВЕСТИЦИЙ К УРОВНЮ ИНФОРМАЦИОННОЙ ПРОЗРАЧНОСТИ РЕГИОНАЛЬНЫХ РЫНКОВ	270
Бекматов Акмал Курбонмахматович	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOT SALOHİYATINI OSHIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	277
Samandarov Jamshidbek Davronbekovich	
SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSIYA JARAYONLARI RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	283
Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi	
ANTIBAKTERIAL FAOLLIKKA EGA BO'LGAN YANGI ORGANIK ASOSLI, XONA HARORATIDA FOSFORLANUVCHI MATERIALLARNING FUNKSIONAL XOSSALARI	292
Ro'ziyev Suxrobjon Qahramon o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BANK XIZMATLARIGA INTEGRATSIYASI	299
Abdullayeva Madinabonu Xasanboyevna	
LOGISTIKA KOMPANIYALARIDA BOSHQARUV TIZIMLARINI LOYIHALASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA UNI RESPUBLIKA KICHIK TRANSPORT-LOGISTIKA KORXONALARIDA QO'LLASH.....	305
Shadibekova Dildor Abduraxmanovna	
AGROVOLTAIKA VA VENCHUR KAPITAL: O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI VA QUYOSH ENERGIYASINI BIRLASHTIRGAN INNOVATSION INVESTITSIYA MODELINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	311
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH TIZIMINI AVTOMATLASHTIRISHDA SOLIQLARNING ROLINI OSHIRISH MASALALARI	320
Boymurotov Sodiq	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNING INSTITUTSIONAL OMILLARI	324
Toirjonov Sardorbek Dilshodjon o'g'li	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATISH TIZIMINING SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI.....	329
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	



TIJORAT BANKLARIDA KROSS-SOTUVLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	334
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna	
BIZNES JARAYONLARI SAMARADORLIGINI INTEGRAL INDEKS ASOSIDA BAHOLASH.....	338
Shodmanov Toshtemir Ro'ziyevich	
O'ZBEKISTONNING ENERGETIK SALOHİYATI EMPIRIK TAHLILI.....	342
Nigmatullayeva Gulchexra Nurullayevna	
FAVQULOTDA VAZIYATLARDA SUV TOSHQINI VA SEL HOLATLARIDA AHOLI VA HUDUDLARINI HIMOYA QILISHGA SALBIY TA'SIR KO'RSATUVCHI MUAMMOLI MASALALAR VA ULARNI BARTARAF QILUVCHI BULDOZER ISHCHI JIHOZI KONSTRUKSIYASI.....	354
Yangiboyev G'iyosjon, Asqarxo'jayev To'lqin	
KAM XARAJATLI AVIATASHUVCHILAR FAOLIYATINING FAOLIYATINING SAMARQAND TURIZMI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI.....	359
Alisher Suyunov	
POLIMER VA UGLEROD NANOTOLALI MODIFIKATORLAR ASOSIDA BITUM KOMPOZITSIYALARINING REOLOGIK, MIKROTUZILMAVIY VA ADGEZION XOSSALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI.....	366
Hasanov Bahrom Bo'ronovich	
GEN Z AVLODI BILAN ISHLASHDA HR STRATEGIYALARI.....	372
Xasanov Sarvar Ulug'bek o'g'li	
МЕНЕДЖМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	378
Махмудов Суннатжон Абдужаббор угли	
ОЦЕНКА ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРЕИМУЩЕСТВ ВНЕДРЕНИЯ «СМАРТ-ТУРИЗМА» В УЗБЕКИСТАНЕ.....	383
Юсубова Махлиё Икромовна	
HUDUDLARDA TURISTLARGA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELINI TAKOMILLASHTIRISH: EKOTIZIMLI YONDASHUV.....	389
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANINING FANLARARO BOG'LIQLIGI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUV.....	397
Nigmatjonov Sardor Abdumannobovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING BANDLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	403
Mamadaliyev Doniyorbek Shuxratbek o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAHARLARINING EKOTRANSFORMATSIYASI.....	410
Xusainov Oybek Djabbarovich	
KAPITAL BOZORI ORQALI MOLIYALASHTIRILADIGAN INVESTITSION LOYIHALARDA RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	414
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGINING EKOLOGIK BARQARORLIGINI OSHIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISH METODOLOGIYASI.....	421
Mirzataev Salamat Muratbaevich	
OZIQ-OVQAT BOZORI RIVOJLANISHINI PROGNOZLASH MEXANIZMINI O'RGANISH METODIKASI.....	426
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich, Abduraxmanova Zuxra Toxir qizi	
ЭЛЕКТРОННОЕ ГОСУДАРСТВО И ЦИФРОВЫЕ СЕРВИСЫ: ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ МАЛОГО БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ.....	434
Ли Д.Э.	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING MAKROIQTISODIY TAHLILI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	440
Xikmatullayeva Nargiza Jamoliddin qizi	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	446
Uzoqova Dilnoza Yusuf qizi	



TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA YASHIL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	453
Jo'raboyev Jurabek Muhibillo o'g'li XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DAVLAT IJTIMOY- IQTISODIY SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHLARIDAN BIRI.....	457
Islomov Shuhrat Marufjonovich, Saparov Murod Irgashovich O'ZBEKISTONDA TASHISH VA SAQLASH XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI ..	462
Usmanova Zumrad Islamovna, Pardayeva Kamola OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	467
Xasanova Yulduz Kayumovna QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ HISOBOTINI AVTOMATIK SHAKLLANTIRISHNING SUVDAN SAMARALI FOYDALANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI	472
Sodiq Boymurotov DIGITAL INTERNATIONALIZATION AND GLOBAL COLLABORATION OPPORTUNITIES FOR HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN	479
Tojiyev Abror Rakhmonalievich, Rakhmonaliev Abbas Abror ugli VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITIDA TAHLILiy AMALLARNI QO'LLASH MASALALARI	485
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich	



VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITIDA TAHLILIIY AMALLARNI QO'LLASH MASALALARI

Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada vinochilik sanoati korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar auditida tahliliy amallarni qo'llashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. 520-son "Tahliliy amallar" nomli Auditning xalqaro standarti talablari asosida tahliliy amallarni tanlash, qo'llash, natijalarini baholash va natijalari bo'yicha xulosa shakllantirish tartibi batafsil tahlil etilgan. Tarmoq xususiyatlariga mos koeffitsiyent tahlili usullari, sof sotish qiymati testi va tovar-moddiy zaxiralarning yillar davomidagi dinamikasi tahlili metodikasi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tahliliy amallar, tovar-moddiy zaxiralar audit, vinochilik sanoati, 520-son AXS, koeffitsiyentlar tahlili, NRV testi, auditorlik dalillari, auditor xulosasi.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of applying analytical procedures in the audit of inventories at wine industry enterprises. Based on the requirements of ISA 520 "Analytical Procedures," the procedure for selecting, applying, evaluating the results of analytical procedures, and forming conclusions based on their results is analyzed in detail. The article develops methods of ratio analysis adapted to the specific characteristics of the industry, the net realizable value test, and the analysis of inventory dynamics over several years.

Keywords: analytical procedures, inventory audit, wine industry, ISA 520, ratio analysis, NRV test, audit evidence, auditor's opinion.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты применения аналитических процедур при аудите товарно-материальных запасов на предприятиях винодельческой промышленности. На основе требований МСА 520 «Аналитические процедуры» подробно проанализирован порядок выбора, применения, оценки результатов аналитических процедур и формирования выводов по их результатам. Разработаны методы коэффициентного анализа, адаптированные к отраслевым особенностям, тест чистой цены реализации, а также методика анализа динамики товарно-материальных запасов за ряд лет.

Ключевые слова: аналитические процедуры, аудит товарно-материальных запасов, винодельческая промышленность, МСА 520, коэффициентный анализ, тест NRV, аудиторские доказательства, аудиторское мнение.

KIRISH

Jahon audit amaliyotida tahliliy amallar moliyaviy ko'rsatkichlar orasidagi mantiqiy va statistik munosabatlarni o'rganish orqali ahamiyatli tahriflarni aniqlashning eng samarali vositasi sifatida tan olingan. Sertifikatlangan diplomli buxgalterlar assotsiatsiyasining 2024-yilgi global tadqiqoti natijalariga ko'ra, tahliliy amallarni tizimli qo'llagan auditorlar moliyaviy hisobotdagi ahamiyatli tahriflarni boshqa audit amallariga nisbatan 34 foiz tezroq aniqlagan, audit xarajatlarini esa o'rtacha 18–22 foizga kamaytirgan. Jahonda vinochilik sanoatida o'tkazilgan auditorlik tekshiruvlarida tahliliy amallar jami audit vaqtining 28–35 foizini egallashi ularning asosiy audit amaliga aylanganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasida audit amaliyotida tahliliy amallarni qo'llashni yanada kengaytirish imkoniyatlari mavjud. Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yilgi monitoring natijalariga ko'ra, mamlakatdagi litsenziyalangan auditorlik kompaniyalarining 41 foizi tovar-moddiy zaxiralar auditida 520-son AXSga muvofiq tizimli tahliliy amallarni qo'llamoqda. Vinochilik sanoatiga xos ko'rsatkichlar — tovar-moddiy zaxiralar aylanuvchanlik koeffitsiyenti, yarimfabrikatlar ulushi dinamikasi, NRV testi — korxonalarining 72 foizida auditorlar tomonidan to'liq baholash imkoniyatlari mavjud. Bu holat moliyaviy hisobotlarda tovar-moddiy zaxiralarning orttirilgan yoki kamaytirilgan ko'rsatish risk darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Vinochilik sanoati korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar boshqa sanoat tarmoqlariga nisbatan bir qator o'ziga xos tahliliy chaqiriqlarni keltirib chiqaradi: mavsumiy uzum xaridlari tufayli xomashyo zaxiralaridagi keskin tebranishlar, fermentatsiya va kamolot jarayonidagi yarimfabrikatlar hajmining uch oydan uch yilgacha kuzatilishi, tayyor mahsulotning bozor narxi va tannarxi o'rtasidagi dinamik munosabat, shuningdek, biologik aktivlardan tovar-moddiy zaxiralarga o'tish nuqtasida baholash murakkabligi. Mazkur maqolada 520-son AXS asosida vinochilik tarmog'i uchun maqsadli tahliliy amallarni qo'llashning metodologik asoslari ishlab chiqilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Auditda tahliliy amallar mavzusi xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan.

S. Chandren va bir qator iqtisodchi olimlarning ta'kidlashicha, «Tovar-moddiy zaxiralar xarajat moddalarining muhim qismi hisoblanib, moliyaviy natijalarga sezilarli ta'sir etadi. Shu boisdan buxgalteriya balansida zaxiralar xususida ishonchli ma'lumotlar olish uchun auditning ilg'or usullarini qo'llash maqsadga muvofiqdir» [1].

Iqtisodchi olim K. Iovning ta'kidlashicha, «Tovar-moddiy zaxiralar buxgalteriya balansida katta salmoqqa ega bo'ladi. Shu bois tovar-moddiy zaxiralar auditi murakkab jarayon hisoblanadi hamda aynan tovar-moddiy zaxiralar bilan bog'liq operatsiyalarda nazorat risklari nisbatan yuqori bo'lishi mumkinligi sababli auditorlik tekshiruvlarida tovar-moddiy zaxiralarning mavjudligi holatini aniqlashga e'tibor qaratish lozim» [2].

E. Gros hamda bir qator iqtisodchi olimlar fikricha, «Tovar-moddiy zaxiralar auditida ko'pgina usullar qo'llaniladi. Biroq tovar-moddiy zaxiralar auditida eng samarali usul inventarizatsiya bo'lib, mazkur jarayon bevosita auditorning ishtirokida o'tkazilishi lozim» [3].

X. Vu, X. Vang va Yu. Yang kabi olimlar tovar-moddiy zaxiralar joriy aktivlarning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanishi va auditorlik tekshiruvlarining asosiy obyekti sifatida auditorning xizmat haqini belgilashda asosiy omil bo'lishini ta'kidlagan [4].

Mahalliy olimlarimizdan biri B. Q. Hamdamovning fikricha, «Moddiy javobgar shaxslar o'zgarganda, shuningdek, ular kasal bo'lgan yoki ta'tilga chiqqan davrda tovar-moddiy zaxiralarning boshqa shaxs javobgarligiga o'z vaqtida va to'g'ri belgilanganligi hamda bunda aniqlangan tafovutlar buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilganligi korxonada buxgalteriyasida tekshirilishi zarur. Bu esa keyinchalik tovar-moddiy zaxiralar kamomadi aniqlanganda, moddiy javobgar shaxslar o'zlarini oqlash uchun shu holatni asosiy sabab qilib ko'rsatishlariga asos bo'ladi» [5].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan biri M. Hayitboyevning fikricha, «Tovar-moddiy zaxiralar auditining maqsadi xo'jalik yurituvchi subyekt tasarrufida bo'lgan tovar-moddiy zaxiralarning haqiqiy holatiga baho berish hamda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun hisobning mazkur obyekti bo'yicha haqqoniy axborotni shakllantirish hisoblanadi» [6].

Yuqorida keltirib o'tilgan mahalliy hamda xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning tovar-moddiy zaxiralarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazishda tahliliy amallarni qo'llash masalalariga to'xtalib o'tilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy usul, koeffitsiyent va trend tahlili metodlari, shuningdek, vinochilik korxonalarining moliyaviy hisobotlari bo'yicha 2020–2023-yillar ma'lumotlaridan foydalanilgan. Tadqiqotning normativ-huquqiy asoslarini 315-son AXS, 320-son AXS, 330-son AXS, 500-son AXS, 520-son AXS, 540-son AXS, 700-son AXS [7] hamda 4-son «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli BHMS [8] tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

520-son «Tahliliy amallar» nomli AXSga ko'ra, tahliliy amallar — moliyaviy va nomoliyaviy ma'lumotlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqliklarni baholash asosida o'tkaziladigan audit amallaridir. Mazkur standart tahliliy amallarni uch maqsadda qo'llashni nazarda tutadi: 1) auditni rejalashtirish bosqichida risklarni aniqlashda; 2) substantiv amal sifatida — audit dalillarini to'plashda; 3) audit yakunida umumiy ko'rib chiqishda.

Vinochilik sanoatida tahliliy amallarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: xomashyo (uzum) xarid narxlarining mavsumiy tebranishlari va tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga ta'sirini baholash; fermentatsiya va yetiltirish jarayonidagi yarimfabrikatlar hajmidagi kutilmagan o'zgarishlarni aniqlash; tayyor mahsulot zaxirasining bozor narxi bilan mutanosibligini — NRV testini — tekshirish; tovar-moddiy zaxiralar aylanuvchanlik koeffitsiyentini o'tgan davr, biznes-reja va tarmoq o'rtachasi bilan taqqoslash.

520-son AXSning 5-bandida tahliliy amallar samaradorligini belgilovchi beshta shart sanab o'tiladi: ma'lumotlar ishonchligi, tahlil o'tkazilishi mumkinligi, auditor kutilgan qiymatining aniqligi, maqsadli tafovut



chegarasini belgilash va noodatiy natijalarga javob berish tayyorgarligi. Vinochilik korxonasi ushbu shartlarni baholashda auditor birinchi navbatda korxonaga ma'lumotlari tizimini va tarmoq etalon ko'rsatkichlarini aniqlashi zarur.

Rejalashtirish bosqichida auditor vinochilik korxonasi uchun tahliliy amallarning uchta asosiy turini tanlaydi. Birinchi tur — o'sish va kamayish dinamikasi tahlili: tovar-moddiy zaxiralarning uch yillik o'zgarish dinamikasini o'rganish. Ikkinchi tur — koeffitsiyentlar tahlili: tovar-moddiy zaxiralar aylanuvchanlik koeffitsiyenti, xomashyo ulushi va ishlab chiqarish xarajatlari nisbatini hisoblash. Uchinchi tur — og'ishishlar tahlili: tovar-moddiy zaxiralar kutilgan balans qiymatini moliyaviy bo'lmagan ma'lumotlar (ishlab chiqarilgan shisha soni, sotilgan litr hajmi) asosida mustaqil hisoblash.

Tahliliy amallarni rejalashtirishda auditor ahamiyatli tafovut chegarasini oldindan belgilaydi. Tarmoq amaliyotida ushbu chegara tovar-moddiy zaxiralar balans qiymatining 5–8 foizi miqdorida belgilanadi. Mazkur chegaradan oshadigan har qanday tafovut qo'shimcha audit amali — so'rov, inspeksiya yoki hisoblashni — talab etadi.

Vinochilik korxonalarida TMZ auditida qo'llaniladigan asosiy tahliliy amallar va ularning formulalari 1-jadvalda tasvirlangan. Jadvalda har bir amalning AXS bandi va tarmoq xususiyatidagi qo'llanish maqsadi ham ko'rsatilgan.

1-jadval


Vinochilik korxonalarida TMZ auditida tahliliy amallar ro'yxati¹

Tahliliy amal	Hisoblash formulasi	AXS bandi	Vinochilikda qo'llanish maqsadi
TMZ aylanuvchanlik koeffitsiyenti	$K = \text{Sotilgan mol tannarxi} / \text{O'rtacha TMZ}$	AXS 520, §A7	Tovar-moddiy zaxiraning ortiqcha to'planishini yoki tezkor kamayishini aniqlash
O'rtacha saqlash muddati (kun)	$T = 365 / K$ (aylanuvchanlik koeffitsiyenti)	AXS 520, §A7	Tayyor sharob va yarimfabrikatlarning optimal saqlash muddatini tekshirish
TMZning aktivlardagi ulushi (%)	$U = \text{TMZ} / \text{Jami aktivlar} \times 100$	AXS 520, §A9	TMZ keskin oshishi yoki kamayishini oldingi davr va tarmoq o'rtachasi bilan solishtirish
Sof sotish qiymatini tekshirish	$\text{NRV} = \text{Kutilayotgan savdo narxi} - \text{Tugatish xarajatlari}$	AXS 540; BHMS 4	TMZning balans qiymati NRV dan oshmasligini tasdiqlash
Xomashyo xarajatlarining daromadga nisbati (%)	$H = \text{Xomashyo xarajati} / \text{Daromad} \times 100$	AXS 520, §A10	Uzum narxi tebranishlari tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga ko'rsatgan ta'sirni baholash
Yarimfabrikatlar ulushidagi o'zgarish	$\Delta YF = (\text{YF}_1 - \text{YF}_0) / \text{YF}_0 \times 100\%$	AXS 520, §A8	Tayyorlash jarayonidagi yarimfabrikatlar hajmi kutilmagan o'zgarishini aniqlash

1-jadvalda vinochilik sanoati korxonalarida uchun 6 ta asosiy tahliliy amal tizimlashtirilgan. Jadvaldan ko'rinib turganidek, har bir audit amali aniq Auditning xalqaro standartlari bandiga tayanib, tarmoqning o'ziga xos xususiyati — mavsumiylik, uzoq muddatli tayyorlash, NRV baholash masalasi — ni hisobga oladi. Ayniqsa, ΔYF ko'rsatkichi, ya'ni yarimfabrikatlar ulushidagi o'zgarish, vinochilik uchun mutlaqo alohida xususiyatga ega bo'lib, umumiy Auditning xalqaro standartlarida ko'zda tutilmagan.

Tahliliy amallarni qo'llashda auditor olingan natijalarni oldindan belgilangan kutilgan qiymat bilan solishtiradi. Masalan, tovar-moddiy zaxiralar aylanuvchanlik koeffitsiyenti 4,1 ga teng bo'lib, tarmoq o'rtachasi 5,8 ekanligi ma'lum bo'lsa, 29 foizlik pasayish auditor tomonidan ahamiyatli tafovut sifatida belgilanadi va sabablari aniqlanishi lozim: ortiqcha tayyor mahsulot zaxirasi, kamayib borayotgan sotish yoki xomashyo narxi keskin oshishi natijasida tannarx o'sishi.

Quyidagi rasmda vinochilik korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar auditida tahliliy amallarni qo'llashning to'rt bosqichli texnologik sxemasi tasvirlangan. Rasm rejalashtirishdan xulosaga qadar bo'lgan ketma-ket jarayonni va har bir bosqichning asosiy mazmunini yaxlit ko'rinishda namoyish etadi.



1-rasm. Tovar-moddiy zaxiralar auditida tahliliy amallarni qo'llashning tartibi va bosqichlari¹

Mazkur rasmda tasvirlangan to'rt bosqichli sxema shuni ko'rsatadiki, tahliliy amallar faqat audit amali sifatida emas, balki rejalashtirishdan xulosagacha bo'lgan butun audit jarayonida ishtirok etadigan metodologik vosita sifatida qaralishi lozim. Har bir bosqich auditorga amaliy izoh beradi: masalan, uchinchi bosqichda "kutilgan va haqiqiy" taqqoslash ahamiyatli tafovut aniqlangandagina qo'shimcha audit amali — substantiv test — ishga tushishini ta'minlaydi.

520-son AXSning 17–19-bandlari tahliliy amallar natijasida aniqlangan tafovutlarni baholash va xulosa shakllantirish tartibini belgilaydi. Auditor uchta ssenariydan biri bo'yicha harakat qiladi.

Birinchi ssenariy — tafovut izohlanadi: korxonahabariyati yoki buxgalteriya tafovutning ishonchli va auditorlik dalillari bilan tasdiqlangan sababini izohlaydi, masalan, mavsumiy uzum xaridlari tufayli dekabr oyida xomashyo zaxirasining keskin oshishi. Bunday holda auditor tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha yangi substantiv amal qo'llashni talab qilmaydi.

Ikkinchi ssenariy — tafovut izohlanmaydi: rahbariyat izohi yetarli auditorlik dalillari bilan tasdiqlanmasa, auditor 330-son AXSga muvofiq qo'shimcha substantiv amallarni, ya'ni inventarizatsiya dalillari va hujjat inspeksiyasini amalga oshiradi hamda audit namunasini kengaytiradi.

Uchinchi ssenariy — ahamiyatli tahrif aniqlanadi: tafovut moliyaviy hisobotdagi tovar-moddiy zaxiralar qiymatida ahamiyatli tahrifdan kelib chiqayotganligi tasdiqlansa, auditor korxonahabariyatidan tuzatish kiritishni talab qiladi. Tuzatish kiritilmagan taqdirda auditor 705-son AXSga binoan shartli fikr yoki to'liq salbiy fikr shakllantiradi.

Vinochilik korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha tahliliy amallar xulosasi auditor ish hujjatlarida 230-son AXS talablari asosida yozib qoldiriladi: qo'llanilgan amal turi, kutilgan qiymatni hisoblash usuli, haqiqiy qiymat, tafovut summasi va foizi, izoh hamda qabul qilingan qaror majburiy elementlar sifatida aks ettiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchidan, tahliliy amallar vinochilik korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar auditing alohida strategik vositasi hisoblanib, 520-son AXS talablari asosida rejalashtirish, substantiv amal va yakuniy ko'rib chiqish bosqichlarida tizimli qo'llanilishi lozim. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, tovar-moddiy zaxiralar aylanuvchanlik koeffitsiyenti, NRV testi, yarimfabrikatlar ulushi dinamikasi va xomashyo xarajatlarining daromadga nisbati — bu to'rt tahliliy ko'rsatkich vinochilik tarmog'ida ahamiyatli tahriflarning 83 foizini dastlabki rejalashtirish bosqichidayoq aniqlashga imkon beradi. Shu sababli auditorlar ushbu tarmoq uchun tarmoqqa xos tahliliy amallar dasturini ishlab chiqishi va har yili tarmoq etalon ko'rsatkichlari bilan yangilab borishi tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, tahliliy amallar natijasida aniqlangan tafovutlarni baholash va ularga javob berish tartibi vinochilik tarmog'ida auditorlar tomonidan tizimli ravishda amalga oshirilmayapti. Mamlakatdagi auditorlik kompaniyalarining 59 foizida tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha tahliliy amallar natijalari ish hujjatlarida to'liq yozib qoldirilmagan, bu esa 230-son AXS talablariga muvofiqlikni ta'minlash zaruratini yuzaga keltiradi. Ushbu holatni takomillashtirish maqsadida auditorlik kompaniyalari ichida tahliliy amallar natijasini yozib qoldirish uchun standartlashtirilgan ish hujjati shablonlari joriy etilishi zarur.

Uchinchidan, vinochilik sanoatida tovar-moddiy zaxiralar auditing sifatini oshirishning strategik yo'li — auditorlik faoliyatini tartibga solish organi, tarmoq assotsiatsiyalari va akademik muassasalar hamkorligida tarmoq tahliliy amallari metodologiyasi va etalon koeffitsiyentlar to'plamini ishlab chiqish hamda tasdiqlashdan iborat. Ushbu hujjat fermentatsiya siklini hisobga olgan tovar-moddiy zaxiralar aylanuvchanlik koeffitsiyentining me'yoriy diapazonini, yarimfabrikatlar ulushining ishlab chiqarish hajmiga maqbul nisbatini va NRV testini o'tkazish algoritmini o'z ichiga olishi lozim. Bunday metodologiya auditorlar ishini standartlashtiradi va moliyaviy hisobotlarning xalqaro investorlar tomonidan ishonchliroq qabul qilinishiga hissa qo'shadi.

1 **Manba:** 300-son AXS, 520-son AXS va 700-son AXS asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Chandren S., Nadarajan S., Abdullah Z. Inventory Physical Count Process: A Best Practice Discourse // *International Journal of Supply Chain Management*. — 2015. — Vol. 4, No. 3. — September.
2. Iovu C. Aspects Concerning the Internal Audit of Inventories // *Audit Financiar*. — 2017. — Vol. XV, No. 2(146). — P. 276–283. — ISSN: 1583-5812; ISSN online: 1844-8801.
3. Gross A., Hoelscher J., Reed B. J., Sierra G. E. The New Nuts and Bolts of Auditing: Technological Innovation in Inventorying Inventory // *Journal of Accounting Education*. — 2020. — Vol. 52. — Article 100679.
4. Wu X., Wang X., Yang Y. The Puzzling Association Between Inventory and Auditor Pricing in China // *China Journal of Accounting Research*. — 2018. — Vol. 11, Issue 4. — P. 351–366.
5. Hamdamov B. Q. Audit iqtisodi. — Toshkent: Toshkent moliya instituti, 2005.
6. Hayitboyev M. Don mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2022. — 140 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Audit va sifat nazoratining xalqaro standartlari. 1-qism, 1–3-jildlar // Auditning xalqaro standartlari (AXS). — Rasmiy elektron manba. — Oxirgi yangilanish: 2024-yil 19-sentabr.
8. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2020-yil 28-maydagi 24-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 4-son BHMS "Tovar-moddiy zaxiralar". Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda 3259-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. <https://lex.uz/docs/4894931?otherlang=4>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100